



Learning as an object of pedagogical and psychological research

Aropat NEGMATOVA¹

Andijan State Pedagogical Institute

ARTICLE INFO

Article history:

Received December 2023

Received in revised form

15 December 2023

Accepted 20 January 2024

Available online

25 February 2024

Keywords:

educational activity,
learning ability,
learning style,
interest in learning,
types of learning,
motives for learning.

ABSTRACT

The article examined and comparatively analyzed scientific knowledge about how the learning process occurs in the mind of an individual, the accumulated experience and the process of its coverage in pedagogical and psychological literature, as well as scientific considerations. From the point of view of teaching strategy, the necessary conclusions were drawn and recommendations were made.

2181-1415/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol5-iss1-pp70-79>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

O'rganish pedagogik va psixologik tadqiqotlarning ob'yekti sifatida

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

o'rganish faoliyati,
o'rganish qobiliyati,
o'rganish uslubi,
o'rganishga qiziqish,
o'rganish turlari,
o'rganish motivlari.

Ushbu maqolada shaxs ongida o'rganish jarayoni qanday kechishi haqidagi ilmiy bilimlar, to'plangan tajribalar va ularning pedagogik-psixologik adabiyotlarda yoritilish jarayoni hamda ilmiy mulohazalar o'rganilib, tahlil qilingan.

¹ Docent, Candidate of Pedagogical Sciences, Department of Pedagogy and Psychology. Andijan State Pedagogical Institute.

Обучение как объект педагогического и психологического исследования

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

учебная деятельность,
обучаемость,
стиль обучения,
интерес к учению,
виды обучения,
мотивы обучения.

В статье были изучены и компаративно проанализированы научные знания о том, как процесс обучения происходит в сознании личности, накопленный опыт и процесс его освещения в педагогико-психологической литературе, а также научные соображения. С точки зрения стратегии обучения были сделаны необходимые выводы и даны рекомендации.

Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, hozirgi kunda o'rganish strategiyasini rivojlantirish muammosini hal qilishning ikki usuli mavjud: kompleks va intensiv [1]. Ularning ikkalasi ham bilimli, axloqli, ijtimoiy faol, qobiliyatli shaxsni tarbiyalashni maqsad qiladi. Biroq, maqsadga erishishning yondashuvlari turlicha. O'rganish strategiyasini rivojlantirishga doir muammolarni hal qilishda kompleks usulda ta'lim oluvchilarga yetkazilgan bilim hajmini oshirish orqali amalga oshiriladi. Intensiv usul esa sub'yektiv, shaxsiy manfaatdorlik pozitsiyasini shakllantirishga asoslanadi va bu ta'lim dasturlari tarkibidagi o'zgarishlarni hamda o'qitish uslublarini intensivlashtirishni (rivojlanish, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim) nazarda tutadi.

O'rganish strategiyasini rivojlantirish muammosining yana bir dolzarbligi shundaki, insonning tashqi dunyo bilan o'zaro aloqasi faqat uning faoliyati va faolligi tufayli amalga oshadi, bu esa o'z navbatida shaxsda mustaqillik va tashabbuskorlikni rivojlantirishga yordam beradi. O'rganish strategiyasi ta'lim oluvchining faolligini, uning bilimga bo'lgan ishtiyoqini, noma'lumdan ma'lumni aniqlashga bo'lgan harakatini ta'minlaydi. Ilmiy adabiyotlarda "o'rganish" tushunchasi turli talqinlarda ifoda etiladi. O'rganish ta'lim oluvchining mustaqil faoliyatga intilishini anglatadi, ijtimoiy tajribani, insoniyat tomonidan to'plangan faoliyat usullarini o'zlashtirishni o'z ichiga oladi [2].

O'rganish strategiyasini rivojlantirish muammosi pedagogika, pedagogik psixologiya, kognitiv psixologiya fanlarining yildan-yilga ahamiyati va dolzarbligi ortib borayotgan masalalardan biri hisoblanadi. Ta'lim oluvchilarning dunyoni ilmiy tushunishi, shaxs sifatida faolligi va faoliyati o'rganish jarayonlari orqali amalga oshadi. O'rganish ta'lim oluvchilarning aqliy qobiliyatlarini, fazilatlarini, ularning tashabbuskorligi va individualligining ajralmas qismidir. O'rganish strategiyasini rivojlantirish mazmunini aniqlash avvalambor "o'rganish faoliyati", "o'rganish qobiliyati", "o'rganish uslubi", "o'rganishga qiziqish", "o'rganish motiv", "o'rganish strategiyasining rivojlanganligi" hamda "o'rganish turlari" kabi tayanch tushunchalarni tahlil qilish zaruratini tug'diradi. Bu borada quyida batafsil to'xtalib o'tiladi:

- o'rganish faoliyati. O'rganish shaxsning ijtimoiy ahamiyatli fazilati bo'lib, shaxsning turli faoliyat turlari negizida shakllanadi. Shaxs faoliyat jarayonida shakllanadi va rivojlanadi, shaxsning faoliyatga bo'lgan munosabatiga qarab, faoliyat turli darajaga, turlicha xususiyatlarga ega bo'lishi mumkin. Faoliyat – bu shaxsning o'ziga xos xususiyati bo'lib, u shaxsning faoliyatga bo'lgan munosabatida namoyon bo'ladi: tayyorlik holati, mustaqil faoliyatga intilish, uni amalga oshirish sifati, maqsadga erishishning maqbul usullarini tanlash. O'rganish faoliyati shaxsning yangi bilim, ko'nikma, ichki qat'iyat va ma'lum bilimlarni to'plash, kengaytirish uchun turli xil harakat usullaridan foydalanish zaruriyatiga bo'lgan qiziqishini aks ettiradi.

O'rganish faoliyatini rivojlantirish muammosi o'qituvchilar va psixologlarning turli xil asarlarida ko'rib chiqilgan. Y.A. Komenskiy, K.D. Ushinskiy, D. Lok, Jan-Jak Russo [3] o'rganishni shaxsning o'rganishga bo'lgan tabiiy istagi sifatida belgilagan. M.A. Xolodnaya, T.M. Golovastikova, S.M. Vishnyakova, G.I. Shukina [4] va boshqalar o'rganish faoliyatning xususiyatlarini va uni shaxsda qanday faollashtirishni tadqiq etganlar.

“O'rganish faoliyati”ga doir tadqiqotlarda uning “pedagogik hodisa” yoki “ikki tomonlama o'zaro bog'liq jarayon” kabi tavsiflari mavjud. “O'rganish faoliyati”ni sub'yektiv va ob'yektiv jihatdan ko'rib chiqish mumkin. Sub'yektiv jihatdan qaraganda, ta'lim beruvchi ta'lim oluvchining o'rganish faoliyatini tashkil etishdagi alohida pedagogik faoliyatlarning natijasi sifatida qaraladi. Ob'yektiv jihatdan qaraganda, ta'lim oluvchining o'zi tashkil etgan, atrof-olamni, o'zini va o'zgalarni anglash jarayonidir. Ikkala jihat ham tadqiqotimiz maqsadi nuqtai nazaridan muhim ahamiyatga, bir-birini to'ldiruvchi, qo'llab-quvvatlovchi xususiyatga ega. Didaktik materiallar ishlab chiqishda ham mazkur jihatni hisobga olish katta ahamiyatga ega.

Bizningcha, ta'lim beruvchining faoliyati (sub'yektiv) ta'lim oluvchining mustaqil o'rganish faoliyatidan (ob'yektiv) o'z-o'zini shakllantirish, ma'lum tamoyillarga ustuvorlik berishlik jarayoniga o'tkazishga qaratilishi lozim. Bu esa didaktik materiallar ishlab chiqishda ta'lim oluvchilarni nafaqat o'quv mashg'ulotida biror bir o'rganish faoliyatiga yo'naltirish, balki o'quv mashg'ulotlardan tashqarida ham izlanuvchanligi, qiziquvchanligi, ijodkorligini faollashtirishni hisobga olishni taqozo etadi. Ko'plab pedagogik-psixologik tadqiqotlarda o'rganish faoliyatining birinchi jihatiga e'tibor qaratilgan. O'tgan asrning 50–70-yillardagi psixologik-pedagogik tadqiqotlarda “o'rganish faoliyati” ta'lim oluvchining pozitsiyasi sifatida tavsiflanadi.

Pedagog va psixolog olim L.V. Zankov[5] esa o'rganish faoliyatni ta'lim oluvchining ijodkorligi kontekstida ko'rib chiqqan. Ta'lim oluvchining o'rganish strategiyasining rivojlanishi didaktik o'quv materiallarining tatbiq etish sur'ati, nazariy va amaliy bilimlar miqdoriy ulushining ortishi, o'quv materiallarini osonlashtirish yoki qiyinlashtirish, ta'lim oluvchining monoton takrorlashi hisobiga amalga oshmaydi. Ta'lim oluvchida o'rganish strategiyasini rivojlanishi ularning tafakkurini rivojlantirishga qaratilishi, o'quv materiallarini chuqurlashtirish va mazmundagi o'zaro bog'liqlikni ta'minlash, o'rganilayotgan mavzuga nisbatan unda ijobiy munosabatni, qiziqishni shakllantira olganda samarali bo'ladi.

E.V. Korotaeva va A.N. Nefedovalar o'z izlanishlarida “o'rganish” tushunchasi boshqa tushunchalar bilan mazmunan bir xil ma'noda ishlatilishiga e'tibor qaratib, bu tushunchaning “faollik”, “faollashtirish”, “o'rganish jarayoniga munosabat” kabi tavsiflanayotganiga e'tibor qaratadi. Pedagogik nuqtai nazardan olib qaraganda, ta'lim-tarbiya jarayonida ta'lim oluvchining o'rganish faoliyatini qanday faollashtirish va rivojlantirish tushuniladi [6].

G.I. Shukina [7] o'rganish faoliyatini ta'lim oluvchining “o'ziga xos holatini va uning faoliyatga bo'lgan munosabatini” ifodalashini ta'kidlab, “doimiy ravishda o'quv jarayonlarida shakllanib boruvchi shaxsiy ta'lim” ekanligiga urg'u beradi. O'rganish faoliyatining manbai o'rganishga qiziqish hisoblanadi. Qiziqish – shaxsning biror narsaga faol hissiy-aqliy munosabati bo'lib, u shaxsning barcha psixik jarayonlarini faollashtiradi va doimiy izlanishga undaydi. O'rganish faoliyatining o'ziga xos jihatlari quyidagilar: faoliyatga o'z-o'zidan qo'shilish, izlanish xarakteriga egaligi, faoliyat mazmuni va usullarini tashabbuskorlik orqali tanlash, faollikni keltirib chiqaruvchi sharoitlarni erkin tanlash, o'rganish faoliyatiga tayyorlik. Bular shaxsning atrof-muhit va dunyoni bilish, tadqiq qilishga bo'lgan faollikni belgilab beruvchi o'rganishga qiziqishiga asoslanadi.

F.I.Xarlamov [8] esa o'z tadqiqotida o'rganish faoliyatiga ta'rif berib, ta'lim oluvchining "atrof olamni intensiv ravishda tahlil qilish va sintez qilish faoliyati va ilmiy bilim tizimlarini egallab borishi ekanligiga urg'u beradi. Bu xususidagi fikrlarini davom ettirib, ta'lim oluvchining "bilim olishga intilishi uning aqliy mehnati hisoblanib, bu bilimlarni o'zlashtirish jarayonida ixtiyoriy amalga oshiriladigan faol harakat", deb izohlagan. Ta'lim beruvchining fan mazmunini yetkazishda ta'lim oluvchilarni mantiqiy va izchillikni tushunishga yo'naltirish, ularni faollashtirish, asosiy va muhim tushunchalarni ajratish, alohida ta'kidlash katta rol o'ynaydi. Ta'lim oluvchilarda mashg'ulot mavzusiga doir savollarni shakllantirishga undash, ulardagi bilimlarning "mavjud holati"ni aniqlashga hamda qiziqish sohalarini belgilab olishga yordam beradi. Ta'lim beruvchining fan mazmunini professional ravishda taqdim qila olishi, ta'lim oluvchilarni qiziqitira olishi katta rol o'ynasa, o'quv materiallari, metodlar va topshiriqlar ta'lim oluvchining o'rganish faolligini oshirishga turtki beruvchi jihatlar hisoblanadi.

O'rganish qobiliyati. Ilmiy manbalarda o'rganish faoliyati bilan bir qatorda o'rganish qobiliyati iborasi ham keng qo'llaniladi. O'rganish qobiliyati ta'lim oluvchining asosiy faoliyati bo'lib, u ta'lim oluvchining intellektual rivojlanishi, uning atrofidagi dunyo haqidagi bilimlarini aniqlashtirish uchun katta ahamiyatga ega. Qobiliyatlar – bu insonning individual psixologik o'ziga xosligi bo'lib, ilmiy, amaliy va ijodiy faoliyatida namoyon bo'lishini hamda uni amalga oshirish muvaffaqiyatini ta'minlaydi. Pedagogika va psixologiyaning zamonaviy rivojlanish bosqichida o'rganish qobiliyati shaxsning intellektual va hissiy qobiliyatlarining kombinatsiyasi sifatida tushuniladi. O'rganish qobiliyati har qanday bilim faoliyati muvaffaqiyatini ta'minlaydi. Ya'ni o'rganish qobiliyati atrof-olamni, dunyoni bilishga qaratilgan, sharoit va omillar ta'siri ostida rivojlanayotgan insonning individual xususiyatidir.

Gardner[9] o'rganish qobiliyati tushunchasini fanlararo tadqiqotlardan foydalangan holda quyidagicha 7 guruhga ajratadi:

1-jadval

Gardner bo'yicha o'rganish qobiliyati turlari

№	O'rganish qobiliyati	Tavsifi
1.	Mantiqiy-matematik qobiliyat (<i>logical-mathematical</i>)	Muammo, vaziyat va vazifalar yechimini topishda deduktiv va mantiqan o'ylash qobiliyati bo'lib, mazkur qobiliyat ilmiy va matematik tafakkur bilan bog'liq.
2.	Lingvistik qobiliyat (<i>linguistic</i>)	Tilning barcha imkoniyatlaridan samarali hamda kommunikatsiya vositasi sifatida foydalanishni nazarda tutadi.
3.	Vizual-fazoviy fikrlash qobiliyat (<i>visual/spatial</i>)	Muammolarni yechish uchun aqliy tasvirlarni yaratish qobiliyati. Mazkur qobiliyat vizual sohalar bilan chegaralanmagan. Ko'zi ojiz bolalarda ham mazkur qobiliyat mavjud.
4.	Musiqiy qobiliyat (<i>musical intelligences</i>)	Musiqiy tovushlar, ritmlar va ohanglarni tanish qobiliyatini o'z ichiga oladi.
5.	Jismoniy-kinestetik qobiliyat (<i>bodily-kinesthetic</i>)	Jismoniy harakatlarni aqliy qobiliyat orqali moslashtirish bo'lib, mazkur qobiliyat aqliy va jismoniy faoliyat o'zaro bog'lanmagan degan fikrni inkor qiladi.
6.	Shaxsiy qobiliyatlar (<i>individual</i>)	O'zi va o'zgalar his-tuyg'ulari, istaklari, maqsadlarini anglashi va baholashi hamda turli xususiyatlarni (yosh, millat, jins...) hisobga olishi tushuniladi.
7.	Tabiatni anglash qobiliyati (<i>naturalistic</i>)	Atrof-olamni, tabiat mavjudotlarni tanish, tabiiy dunyoning xususiyatlarini sezish va anglash qobiliyati.

Garchi yuqorida keltirilgan qobiliyatlar mazmun va mohiyatan bir-biridan ajratilgan bo'lsa ham, Gardnerning ta'kidlashicha, ular kamdan-kam holatda alohida kuzatiladi. Shaxsning rivojlanish jarayonida bir vaqtning o'zida bir qancha kognitiv qobiliyatlar birgalikda qo'llanilishi kuzatiladi.

O'rganish uslubi. "O'rganish uslubi" tushunchasi psixologik adabiyotlarda ingliz tilidan (*learning style*) kirib kelgan bo'lib, "bilish uslubi" degan ma'noni anglatadi. Biroq "o'rganish" va "kognitiv" tushunchalari sinonim emas. "O'rganish" – ob'yektiv voqelikni ongda aks ettirish jarayoniga tegishli bo'lib, u sensor, perseptiv, mnemonik, fikrlash shaklidagi bilish obrazlaridir. "Kognitiv" tushunchasi turli darajadagi bilish obrazlarining shakllanishida ishtirok etadigan, axborotlarni qayta ishlashning psixologik mexanizmiga taalluqli [10].

Ta'lim jarayonida ta'lim beruvchilarga ta'lim beruvchi tomonidan bir xil mazmun yetkaziladi. Lekin ta'lim oluvchilarning o'zlashtirishlari va o'rganish faoliyati har xil. O'rganish uslubi tushunchasi shaxs psixologiyasi va bilish psixologiyasining chegarasida shakllangan. Uslub so'zining qo'shilishi bilan u o'ziga xos tusga ega bo'ladi. Shaxs psixologiyasida uslubni individuallik namoyon bo'lishining eng yuqori darajasi sifatida ta'riflansa, o'rganish psixologiyasida esa intellektual faoliyatning rasmiy tabiatiga ega ekanligini ta'kidlagan holda, uning psixik taraqqiyoti past yoki yuqori darajasiga aloqador emasligi e'tirof etiladi [11].

Kognitiv psixologiya o'rganish jarayonlarini hissiyotdan tortib to anglash, e'tibor, ong, o'rganish, xotira, konsept yaratish, fikrlash, fikrlash kuchi, tasavvur qilish, eslash, til, hissiyotlar va rivojlanish jarayoni hamda harakatlarning barcha mumkin bo'lgan sohalarini o'z ichiga oladi.

O'rganishga qiziqish. Shaxsning o'rganishga qiziqishi dunyo, atrof-muhit bilan bog'liq mavzular hisoblanadi. O'quv materialining mazmunini chuqur o'ylagan holda tanlash, ilmiy bilimlarga xos tushunchalarni singdirish o'rganishga bo'lgan qiziqishni shakllantiradi. T.M.Golovastikovaning [12] ta'kidlashicha, birinchi navbatda bunday o'quv materiallari ta'lim oluvchida qiziqish uyg'otadi va mustahkamlaydi, ularni noma'lum narsalar hayratga soladi, tasavvurini kengaytiradi. Ajablanish holati idrok qilish uchun rag'batning asosiy elementidir. Ta'lim oluvchining ajablanish holati yangi narsalarni o'rganishga intilish, yangi narsalarni kutish holatidir.

Fan bo'yicha o'quv mashg'ulotini har doim ham o'rganishga qiziqishni orttiruvchi ma'lumotlar, topshiriqlar bilan boyitish imkoniyati bo'lmaydi. Mashg'ulot qiziqarli bo'lishi uchun qisman yangi va qisman ta'lim oluvchilar uchun tanish ma'lumotlarni o'z ichiga olishi kerak. Yangi ma'lumotlar tanish bo'lgan ma'lumotlar fonida paydo bo'ladi. Shuning uchun o'rganishga qiziqishning doimiyligini saqlab qolish uchun ta'lim oluvchilarga tanish bo'lgan ma'lumotlar orqali yangi ma'lumotlarni qidirish qobiliyatiga qaratish lozim. Bunda ta'lim oluvchi o'rganayotgan nazariy ma'lumotlarning qanday vaziyatlarda qo'llay olishi, darsdan tashqari vaqtda ham o'rganish imkoniyati borligini tushunib yetishga olib keladi. Yangi ma'lumotlar avvaldan tanish bo'lgan ma'lumotlar takrorlanishi, boshqa jihatlarining bayon qilinishi bilan o'rganishga qiziqishni orttiradi. Shuningdek, ta'lim oluvchilarning kundalik-amaliy faoliyati, kuzatishi natijalari, qarashlarini hisobga olish muhim hisoblanadi.

O'rganish motivi. A.K. Markova [13] o'rganish faoliyatining natijadorligi o'rganish motivlariga bog'liqligini ko'rsatadi. O'rganish motivlari uch turga bo'linadi: keng o'rganish motivlari (yangi bilimlar, dalillar, hodisa va vaziyatlar), metodik jihatdan

o'rganish motivlari (bilimlarni egallash usullari, o'zlashtirishga yo'nalganlik) va o'z-o'zini rivojlantirish motivlari (qo'shimcha bilim olishga, o'z-o'zini mustaqil takomillashtirishga yo'naltirilgan).

M.D. Vinogradov va I.B. Pervin [14] ta'lim oluvchilarda o'rganishga faollikni rivojlantirishda jamoaviy o'rganish faoliyati muhim rol o'ynashini ta'kidlab o'tganlar. Bu orqali ta'lim oluvchilarda ijodkorlik, kreativlik, tasavvur va mustaqillik rag'batlantiriladi. Ta'lim oluvchilarni jamoada ishlashga o'rgatish orqali muloqot qila olish, boshqalarni fikrini sabr va hurmat bilan tinglash, konstruktiv fikr bildirish qobiliyati rivojlanadi. O'quv guruhlarida o'zaro hurmat, e'tiborlilik, yangi bilimlarni o'rganishga ijobiy munosabatni shakllantirish va individual qiziqishni hurmat qilishga o'rgatish jamoaviy o'rganish faoliyatning muhim komponentlari hisoblanadi. Jamoaviy o'rganish faoliyati ta'lim oluvchilarni kollaborativ kompetensiyalarini rivojlantirishning ustuvor jihati hisoblanadi.

Ayrim pedagogik tadqiqotlarda [15] barcha o'rganish usullari ham rivojlantiruvchi xususiyatga ega emasligi ta'kidlanadi. O'rganish faoliyati ta'lim oluvchi tomonidan faqat o'z-o'zini faollikka unday olgandagina amalga oshiriladi. O'rganish faoliyati o'rganilayotgan bilimga bo'lgan munosabat, ya'ni sub'yektiv pozitsiya bilan belgilanadi. Ta'lim oluvchilar faqat o'rganish ob'yekti emas, balki o'rganish sub'yekti hamdir. Ta'lim oluvchi ta'lim beruvchining nafaqat talablarini bajaradi, balki o'zining shaxsiy tajribasi, aqliy rivojlanish darajasiga monand ravishda ichki moslashtirishni amalga oshiradi, yangi bilimlarni faol o'zlashtiradi va qayta ishlaydi [16].

O'rganish faoliyatning sifat ko'rsatkichlari bo'yicha tadqiqotlar qilgan T.I. Shamova: "Ta'lim jarayonida ta'lim oluvchilarning nafaqat faollik holati, balki bu holatning sifati muhim ahamiyatga ega bo'lib, ta'lim oluvchilarning ta'lim mazmuniga, faoliyat xarakteriga bo'lgan munosabati va intilishi bilan namoyon bo'ladi. Ta'lim oluvchilar o'zlarining irodaviy sa'y-harakatlari bilan o'rganish maqsadlariga erishish uchun jalb etiladi" [17], deb ta'kidlab o'tgan. Bu orqali o'rganish faoliyatning ikki jihati alohida ta'kidlab o'tilganligini ko'rishimiz mumkin:

1. O'rganish faoliyatning psixologik jihatlar (faoliyat holati, ushbu faoliyatning sifati).
2. O'rganish faoliyatining ijtimoiy jihatlar (ta'lim oluvchining shaxsiyati, uning faoliyat mazmuni va tabiatiga munosabati) ham aks ettiradi.

Bu ikki jihat orqali o'rganish faoliyatini faollashtiruvchi vositalarni aniqlashtirish imkoniyati mavjud bo'ladi: qiziqish, motivatsiya, irodaviy fazilatlar (o'z axloqiy va irodaviy sa'y-harakatlarini safarbar qilish istagi) va ushbu sa'y-harakatlarni qo'llashning o'ziga xos manzili (ta'limdagi muvaffaqiyat, kognitiv mustaqillik) hamda maqsadi.

Ta'lim beruvchi fan mazmunini tushuntirishda ta'lim oluvchilardagi mavjud bilimlarning holatiga va tayanch tushunchalarni ajratib, alohida tushuntirishga asoslanadi. Pedagogik voqelik shuni ko'rsatdiki, agar ta'lim oluvchilar kognitiv jihatdan faol bo'lsa, o'quv jarayoni samarali, tashkiliy jihatdan murakkablik tug'dirmaydi. Bu pedagogik nazariyada "ta'lim oluvchilarning bilim olishdagi faolligi va mustaqilligi" tamoyili sifatida qayd etilgan. Ta'lim oluvchilarning mustaqilligi ularning "alohida xususiyati, layoqati, faolligi, e'tiborini jamlashga qobiliyatligi, qo'yilgan maqsadga erishish uchun bor kuchini jalb etishi" kabilarda [18] namoyon bo'ladi.

O'rganish faoliyati talabalarni yangi bilim, ko'nikma va malakalarni egallashga qiziqishi, uning maqsadga muvofiqligini anglashi, bilimlar hajmining ortib borishi, bu orqali turli o'rganish strategiyalarini egallab borishga bo'lgan doimiy ehtiyojni aks ettiradi.

Tadqiqotlardan ko'rinib turibdiki, o'rganish faoliyatni yosh xususiyatlari darajasida shakllantirish muammosi o'rganish faoliyati motivatsiyasi va qiziqishlarni shakllantirish usullari tadqiqi bilan uzviy bog'liq. O'rganish faoliyatini talabalarning barcha rivojlanish sohalari namoyon bo'lishi sifatida ko'rish mumkin. Bu yangi bilimlarga qiziqish, muvaffaqiyatga intilish, o'rganishning hissiyotga ijobiy ta'siri, shaxsiy "men"ning e'tirof etilishi, turli muammoli vaziyatlarni hal qilishga bo'lgan ishonchni rivojlanishi, murakkablashib borayotgan mavzularni o'rganishda unga qadar o'rganganlaridan faxrlanish tuyg'usi va boshqalarda o'z ifodasini topadi.

Talabalarning o'rganish faolligini oshirishning samarali usullarini izlash pedagogik amaliyotning dolzarbligini yo'qotmagan masalalaridan biridir. Talabalarni kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashda ularni yangi pozitsiyaga, jamiyatda yangi mavqega ega bo'lishga, o'qib-o'rganishga tayyorgarligi, motivatsiyasi muhim motivlardir. Albatta bu tashqi motivlar hisoblanadi va bu motivlarning o'zi uzoq vaqt davomida saqlanib qolmaydi. Shuning uchun, oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonidagi motivlarni uyg'otish lozim bo'ladi. Talabalarni o'rganishga qiziqishini orttirish, o'rganishga faol munosabatni rivojlantirish – o'quv jarayonida sodir bo'ladi. Talabalarning o'z imkoniyatlari va qobiliyatlariga mos keluvchi mashg'ulotlar qiziqishning mustahkamlanishiga olib keladi. Fundamental tadqiqotlar, turli eksperimentlar, muammoli vaziyatlar, loyihalar talabalar o'rganish faoliyatini shakllantirish jarayonini ochib beradi. Faol o'rganish, o'rganish faoliyatning mazmun va mohiyati talabalarni o'rganishga strategik yondashishga undaydi hamda tashabbuskorlik, mantiqiy fikrlashini rivojlantiradi.

O'rganish faoliyati murakkab psixologik-pedagogik hodisadir. S.M. Vishnyakov [19] ning fikriga ko'ra, o'rganish faolligi – ta'lim oluvchi o'quv faoliyatining sifati, uning ta'lim mazmuni va jarayoniga bo'lgan munosabati, bilim va ko'nikmalarni samarali o'zlashtirishga intilishi, maqsadlarga erishish uchun ma'naviy va irodaviy sa'y-harakatlarni safarbar etishi hamda estetik zavq olish qobiliyatidir.

L.L. Timofeeva [20] o'quv materiallaridagi barcha ma'lumotlar ta'lim oluvchilar uchun qiziqarli bo'lmasligi mumkin, lekin professional yondashuv vositasida ularning o'rganish faolligini oshirib, o'quv jarayonini qiziqarli va samarali tashkil etish mumkinligini ta'kidlab o'tgan. Ta'lim oluvchilarda o'rganish istagini uyg'otish uchun ularni o'rganish faoliyati bilan shug'ullanishga bo'lgan ehtiyojini rivojlantirish kerak.

O'rganish strategiyasining rivojlanganligi. Ta'lim oluvchida o'rganish strategiyasining rivojlanganligi nafaqat o'quv mashg'ulotida, balki sub'yektiv tajribaga asoslangan mustaqil faoliyatda ham namoyon bo'ladi. Bu nafaqat o'quv-me'yoriy hujjatlarda belgilangan mazmunni o'zlashtirishga, balki ob'yektiv va ijtimoiy qadriyatlarda, o'rgangan bilimlarini amaliy faoliyatda qo'llash va munosabatlarini ifodalashda hamda tarbiyaviy muloqotda namoyon bo'ladi. Ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi o'rtasidagi muvaffaqiyatsiz muloqot ta'lim beruvchining monologiga aylanib ketadi. Bu esa ta'lim oluvchining zerikishiga, o'rganish jarayonidan begonalashishiga olib keladi. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, o'rganishning rivojlanganligi doimiy muloqotga asoslanadi.

Bizning fikrimizcha, "o'rganish faoliyati" va "aqliy faoliyat" tushunchalarini ajratish lozim bo'ladi. Aqliy faoliyat aqliy operatsiyalarni, bilishning ma'lum darajasini tavsiflaydi va bu o'rganish faoliyatning natijasidir. Shuningdek, "bilish faoliyati" ham mavjud bo'lib, bilimlarni o'zlashtirish jarayonini o'z ichiga oladi.

O'rganish faoliyatining yangi, mukammal turlarini o'zlashtirish o'rganish qiziqishini orttiradi. Muammoli ta'lim aynan shu maqsadda qo'llaniladi. Talabalarda o'rganish faoliyatini faollashtirishda muammoli vaziyatlarni yaratish, kognitiv

qiziqishlarni orttirish, ijodkorlik, modellashtirish orqali ularning fikrlashi intensivlashadi. Muammoli ta'lim qarama-qarshiliklar, kutilmagan vaziyatlarni o'z ichiga olib, faqat yodlash uchun mos bo'lgan tayyor dalil va xulosalarni emas, balki turli muammoni atroflicha o'rganish, yechim topish uchun variantlar ishlab chiqish, o'z reja va qarorlarini qabul qilish, baho berish, muhokama qilish, hamkorlik qilish orqali dalil hamda xulosalarga erishishni ta'minlaydi.

Talabalarda o'rganish faolligini rivojlantirishda o'quv mashg'ulotlaridagi muvaffaqiyatli vaziyatlar katta ahamiyatga ega. Talabalar muvaffaqiyatga erishganda rag'batlantirilsa va e'tirof etilsa o'zi uchun rivojlanish yo'nalishini belgilab oladi, hissiy-emotsional jihatdan o'ziga ishonchni yuksaltiradi, "ijobiy energiya resursi"ni ko'paytiradi.

O'rganishning turlari. O'rganish bosqichlari va o'rganilayotgan fan mazmuniga asosan o'rganish turlari qo'llaniladi. Agar biror fanning asoslari yoki xorijiy tilda yangi so'zlar o'rganilayotgan bo'lsa o'rganish faqat dalillarga asoslanadi va avvalgi bilimlarga bog'lash imkonsiz hisoblanadi. Mazmuni talabalarga qisman ma'lum bo'lgan fanni o'rganishda oldindan tanish bo'lgan bilimlarni faollashtirish imkoniyati mavjud bo'ladi. Shu jihatdan olib qaraganda o'rganish amaliy, mavjud bilimlarga bog'langan holda hamda rivojlantiruvchi turlarga bo'linadi [21]. O'rganish mavjud bilimlarga bog'lagan holdagina samarali hisoblanadi.

O'rganishning uch xil turi mavjud [22]:

Dalillarga asoslangan o'rganish(surface approach): Mazkur o'ranish bir-biriga bog'liq bo'lmagan dalillarni yodlash, tafsilotlarni shakllantirishga ustuvorlik beradi. Fanning qismlariga doir mavzular alohida tahlil qilinadi, avvalgi mavzular takrorlanadi. Bu o'rganish turi fan mazmunini o'zgartirmagan holda mazmunni yetkazish bilan tavsiflanadi.

Tajribalarga yo'naltirilgan o'rganish (elaborative approach): Fan mazmuni mavzu kontekstidan kelib chiqqan holda talabalarining qiziqishlari va tajribalariga asoslangan holda, mavzu xususiyatidan kelib chiqqan holda amaliy qo'llash orqali o'rganiladi. Bu orqali bir mavzu doirasidagi nazariyalar, dalillar va gipotezalar aniqlashtiriladi. Shuningdek, mavzu doirasidan chiqqan holda kundalik-amaliy faoliyat bilan ham bog'lagan holda o'rganishni ham qamrab oladi.

Barqaror tushunishga yo'naltirilgan o'rganish (deep approach): Bu o'rganish turi talabalarining biror mavzuni "atroflicha va chuqur" o'rganishini tavsiflab, mavzuga doir asosiy dalillar yakuniy natija sifatida qidiriladi. Mavzu turli qismlarga bo'linadi va bir butun mazmun hosil qilish uchun turli o'rganish faoliyati orqali birlashtiriladi. Talabalar mavzuga doir o'z munosabatlarini shakllantirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa talabalarga o'rganilgan mavzuni "shaxsiylashtirishi"ga olib keladi. Olim bilimlarni "shaxsiylashtirish" deb o'rganilgan bilimlar talabada barqaror qolishi, yetarli ravishda o'zlashtirilganligi, fandagi dalillar bo'yicha individual xulosaga kelishiga nisbatan ishlatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Weinstein, Claire E., and Richard E. Mayer. "The teaching of learning strategies." Innovation abstracts. Vol. 5. No. 32. 1983.
2. Nisbet, John, and Janet Shucksmith. Learning strategies. Routledge, 2017.
3. Когнитивная психология в контексте проблем современного образования. Коллективная монография. Под редакцией А.А. Вербицкого, Е.Б. Пучковой. – Москва, МГПУ, 2017. – 330 с.; Лифинцева Н.И. К.Д. Ушинский о формах взаимного

соотнесения и гармонии веры и научного знания в образовании // Вестник ПСТГУ. Серия 4: Педагогика. Психология. 2008. №9. – 45 с.; Кибрик А.А., Кошелев А.Д., Кравченко А.В. Язык и мысль: современная когнитивная лингвистика. Языки славянской культуры. – Москва, 2015. – 857 с.; Величковский Б. Когнитивная наука. Основы психологии познания в 2 т. Том 1. 2-е изд., испр. – М.: Издательство Юрайт, 2017. – 447 с.

4. Холодная М.А. Психология интеллекта: парадоксы исследования. – Санкт-Петербург: Питер, 2002. – С. 264.; Головастика Т.М. Как сделать учение увлекательным? // Начальная школа. – 2006, №2. – С. 30-34.; Вишнякова С.М. Профессиональное образование: Словарь. Ключевые понятия, термины, актуальная лексика. – Москва, НМЦ СПО, 1999. – 538 с.; Тимофеева Л.Л. Когда хочется учиться // Начальная школа. – 2007, №10. – С. 41-46.; Щукина Г.И. Педагогические проблемы формирования познавательных интересов учащихся. – М.: Педагогика, 1988. – 145 с.

5. Занков Л.В. Избранные пед. труды. – М.: Педагогика, 1990. – 78 с. (419)

6. Коротаева Е.В., Нефедова А.Н. Развитие когнитивной активности у старших дошкольников // Педагогическое образование в России. 2012. № 3. – С. 176-181.

7. Щукина, Г.И. Педагогические проблемы формирования познавательных интересов учащихся. – М.: Издательство Педагогика, 1988. – С. 34. (168).

8. Харламов И.Ф. Педагогика. – М.: Юристъ-Гардарика, 2012. – 7 с. (519).

9. Leandro S. Almeida, Maria Dolores Prieto, Aristides I. Ferreira, Maria Rosario Bermejo, Mercedes Ferrando, Carmen Ferrándiz, Intelligence assessment: Gardner multiple intelligence theory as an alternative, Learning and Individual Differences, Volume 20, Issue 3, 2010. – P. 225-230.

10. Холодная М.А. Психология интеллекта. Парадоксы исследования. – Санкт-Петербург: Питер, 2002. – С. 208 (264)

11. Шоумаров Г.Б. Дифференциальная психологическая диагностика задержки психологического развития на основе анализа стандартизированной методики: дисс... канд. психол. наук. – Москва. – С. 140.

12. Головастика Т.М. Как сделать учение увлекательным? // Начальная школа. 2006, №2. – С. 30-34.

13. Маркова А.К., Орлов А.Б., Фридман Л.М. Мотивация учения и ее воспитание у школьников. – М.: Педагогика, 1993. – 23 с. (64).

14. Виноградова М.Д. Первин И.Б. Коллективная познавательная деятельность и воспитание школьников. – М.: Просвещение, 1977. – С. 23. (159)

15. Szabo B., et al. Wild cognition-linking form and function of cognitive abilities within a natural context. Current Opinion in Behavioral Sciences, 2022, 44. Jg., S. 101115.

16. Pamela W. Garner, Badiyyah Waajid Emotion Knowledge and Self-Regulation as Predictors of Preschoolers' Cognitive Ability, Classroom Behavior, and Social Competence. Journal of Psychoeducational Assessment. 30 (4), 2012. – P. 330-343.

17. Шамова Т.И. Управление образовательными системами. – М.: Издательство «Перспектива», 2009. – С. 56. (352).

18. Муслимов Н., Усмонбоева М., Сайфуров Д., Тўраев А. Педагогик компетентлик ва креативлик асослари. –Т.: Сано-стандарт, 2015. – Б. 61. (120)

19. Вишнякова С.М. Профессиональное образование: Словарь. Ключевые понятия, термины, актуальная лексика. –М.: НМЦ СПО, 1999. – 41 с. (538)

20. Тимофеева Л.Л. Когда хочется учиться // Начальная школа, 2007. №10. – С. 41-46.
21. Steiner, Verena. "Exploratives Lernen." Zürich: Pendo 5, 2000. -p. 56
22. Ogle, Donna M. "The know, want to know, learn strategy." Children's comprehension of text: Research into practice, 1989. -p. 205-223.